# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## 2019-yil 1-sentabr holatiga yuridik shaxs bo’lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma’lumot

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)




**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 42076 tani tashkil etadi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar 36299 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-avgust oylarida 6832 ta yangi tashkil etildi**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlari soni 30487 ta bo'lib, 2019 yil yanvar-avgust oylarida 6599 ta yangi tashkil etildi**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi 1042 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda**

**O'tgan yilga nisbatan 251 ta korxona va tashkilotlar tugatilishi kamayganligi kuzatilgan**

| 42076 | 36299 | 6832 |
|---|---|---|
| Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilganlar |

## 2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili. birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

JAMI 6832

Oilaviy korxonalar 650

Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 4874

Xususiy korxonalar 1032

Boshqalar 276



2019-yilning yanvar-avgust oylarida 6832 ta yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni asosiy qismi mas‘uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalarga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa oilaviy korxona hamda boshqa tashkiliy-huquqiy shaklarga to’g'ri keladi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




2019-yilning 1-sentabr holatiga 42,1 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,2 % - savdo, 19,6 % - sanoat, 10,9 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 8,0 % - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,9 % - qurilish, 3,5 % - tashish va saqlash, 1,6 % - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % - axborot va aloqa hamda 22,9 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (10178 ta) savdo, (8252 ta) sanoat, (4571 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (4571 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (3340 ta) qurilish, (1468 ta) tashish va saqlash, (651 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (576 ta) axborot va aloqa hamda (9656 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.



# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 36,3 mingtani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,2 mingta (20,7 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (4012 ta), Qibray (3384 ta) va Toshkent (2543 ta) tumanlari hamda Angren (2231 ta), Chirchiq (2123 ta) shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (863 ta), Oqqo'rg'on (916 ta), Piskent (966 ta), Chinoz (989 ta) tumanlari hamda Ohangaron (866 ta) va Nurafshon (936 ta), shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**2019-yil yanvar-avgust oylarida 6832 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 3088 taga ko'pdir.**



2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

| Faoliyat turi | Ulushi |
|---|---|
| Savdo | 36,4 % |
| Sanoat | 21,1 % |
| Qurilish | 9,8 % |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 9,3 % |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 7,9 % |
| Tashish va saqlash | 3,7 % |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1,1% |
| Axborot va aloqa | 0,9 % |
| Boshqa turlari | 9,8 % |

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (2485 ta), sanoat (1440 ta), qurilish (668 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (634 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (67 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (73 ta) hamda tashish va saqlash (250 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| Faoliyat turi | Soni |
|---|---|
| Savdo | 2485 |
| Sanoat | 1440 |
| Qurilish | 668 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 634 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 542 |
| Tashish va saqlash | 250 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 73 |
| Axborot va aloqa | 67 |
| Boshqa turlari | 673 |

# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (1081 ta), Qibray (573 ta), Toshkent (467 ta) tumanlari va Angren (445 ta) shahri hissasiga to'gri keladi. Aksincha, Piskent (130 ta), Ohangaron (140 ta), Oqqo'rg'on (180 ta), Quyichirchiq (189 ta), Bekobod (190 ta) va Chinoz (192 ta) tumanlari hamda Ohangaron (125 ta), Nurafshon (177 ta) va Yangiyo'l (195 ta) shaharlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**




Korxonalar soningin o'sishi, birlikda

# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 30,8 mingtani tashkil qildi

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 1042 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 291 taga yoki 38,7 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**







Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi Xitoy Xalq Respublikasiga - 26,4 %, Rossiya Federatsiyasiga - 15,6 %, Turkiya Respublikasiga - 11,9 %, Qozog'iston Respublikasiga - 10,1 % va Janubiy Koreya Respublikasiga - 7,9 % to'g'ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda






# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yil 1-sentabr holatiga



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning 562 tasi qo’shma, 480 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to’g'ri keladi.




## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Zangiota 131 ta (jamidagi ulushi 12,6 %), Qibray 106 ta (10,6 %), Yuqorichirchiq 81 tani (7,8 %) tumanlarida va Angren 82 ta (7,9 %), Chirchiq shaharlarida 72 ta (6,9 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka 6 ta (0,6 %), Bekobod, Oqqo'rg'on 8 tadan (0,8 %), Piskent, Chinoz tumanlarida 15 tadan (1,4 %) hamda Bekobod shahrida 17 ta (1,6 %) tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko’rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish hamda axborot va aloqaga to’g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar






2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 200 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51 taga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 61 ta, Rossiya Federatsiyasi-31 ta, Qozog'iston Respublikasi - 27 ta, Turkiya Respublikasi-19 ta va Koreya Respublikasi – 16 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

**105 ta** Sanoat

**37 ta** Savdo

**17 ta** Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

**15 ta** Qurilish

**5 ta** Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**3 ta** Tashish va saqlash

**2 ta** Axborot va aloqa

**1 ta** Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**15 ta** Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 105 ta, savdoda 37 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17 ta hamda 15 ta qurilish va 15 ta boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soning yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda



# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-sentabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 30,5 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 24,4 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-avgust oylarida 6,6 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 91,7 foizga ko'paygan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi 2019 yil 1 sentabr holatiga



| • Eng katta ulushi | | • Eng kichik ulushi | |
|---|---|---|---|
| Zangiota tumani | 11,7 % | Piskent tumani | 2,5 % |
| Qibray tumani | 9,4 % | Chinoz tumani | 2,5 % |
| Toshkent tumani | 7,4 % | Ohangaron shahri | 2,5 % |
| Angren shahri | 6,1 % | Nurafshon shahri | 2,4 % |
| Chirchiq shahri | 5,8 % | Oqqo'rg'on tumani | 2,4 % |
| O'rtachirchiq tumani | 5,5 % | Ohangaron tumani | 2,2 % |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat koʻrsatayotgan jami 30,5 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 8,5 mingta (27,9 %) – savdo, 7,0 mingta (23,1 %) - sanoat, 3,8 mingta (12,5 %) - qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi, 2,8 mingta (9,3 %) - yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasi, 2,7 mingta (9,0 %) - qurilish, 1,3 mingta (4,1 %) - tashish va saqlash, 0,5 mingta (1,6 %) - sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish, 0,4 mingta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 3,4 mingtasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga toʻgʻri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
9,6

Sanoat
21,8

Qurilish
10,1

Savdo
38,3

Tashish va saqlash
3,8

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
8,2

Axborot va aloqa
1,0

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
1,1

Boshqa turlari
6,4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko’p savdo 2483 ta, sanoat 1440 ta, qurilish 668 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 630 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 67 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko’rsatishda 72 ta hamda tashish va saqlashda 250 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (1063 ta), Qibray (555 ta), Toshkent (460 ta) tumanlari va Angren (433 ta) shahri hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (114 ta), Ohangaron (137 ta), Oqqo'rg'on (172 ta) tumanlari hamda Ohangaron (118 ta) va Nurafshon (155 ta) shaharlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda







# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko’rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,7 % yoki 826 tasi sanoat, 21,1 % yoki 462 tasi savdo, 20,5 % yoki 449 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,0 % yoki 264 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,0 % yoki 23 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 15 tasi qurilish, 0,6 % yoki 13 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,4 % yoki 9 tasi axborot va aloqa hamda 6,0 % yoki 131 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda







## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i**
**Xasan Igamberdiyev**
**Tel.:71-230-86-84**